



FARIDA AFRO'ZNING "VATAN" MANZUMASIDA MILLIY O'ZLIK VA OZODLIK TIMSOLLARI

Kenjayeva Madina Irisboy qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

O'zbektili va adabiyoti yo'nalishi, 1-kurs magistranti

kenjayevamadina941@gmail.com +998996035861

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli vakili Farida Afro'z ijodida Vatan manzumasi talqini, istiqlol davri she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Muallif Vatan tushunchasini nafaqat geografik hudud, balki insoniy fidoiylik, milliy an'analar va tarixiy xotira silsilasida tahlil qiladi. Shoiraning "O'zbekiston, o'zligingga jon tikaman" misrasi bilan boshlanuvchi she'riy turkumi orqali mustaqillik bergan ruhiy va moddiy erkinlikning badiiy ifodasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Farida Afro'z, Vatan, manzuma, lirik qahramon, milliy o'zlik, badiiy tasvir, ozodlik ruhiyati.

Abstract:

This article explores the interpretation of the Homeland in the works of Farida Afroz, a prominent representative of modern Uzbek literature, and examines the ideological and artistic features of independence-era poetry. The author analyzes the concept of the Motherland not only as a geographical area but also as a sequence of human devotion, national traditions, and historical memory. Through the poet's cycle starting with "Uzbekistan, I dedicate my life to your identity," the artistic expression of spiritual and material freedom granted by independence is highlighted.

Keywords: Farida Afroz, Homeland, independence, lyrical hero, national identity, artistic imagery, spirit of freedom.

Adabiyot har doim millatning o'zini anglash vositasi bo'lib kelgan. Xususan, o'zbek she'riyatida Vatan mavzusi klassik an'analardan tortib zamonaviy yo'nalishlargacha markaziy o'rin egallaydi. Shoira Farida Afro'zning "Vatan" manzumasi o'zining hayotiyli va samimiyligi bilan ajralib turadi. Manzuma (arabcha "tizim", "tizma") o'zbek adabiyotida voqeaga boy, hikoyaviy mazmunga ega bo'lgan, ko'pincha masnaviy shaklida (har bir bayt o'z qofiyasi bilan) yozilgan she'riy asar bo'lib, uni qisqa she'riy qissa, nazm libosidagi hikoya deyish mumkin, unda kichik syujet, qahramonlar va g'oyaviy mundarija bo'ladi. U ishqiy, hajviy, axloqiy, sarguzasht kabi turli mavzularda yoziladi va 19-asrda



Muqimiy, Furqat kabi shoirlar ijodida rivojlangan.
(<https://uz.wikipedia.org/wiki/Manzuma>)

Farida Afro'z (Bo'tayeva Farida) 1956 yil 5 martda Qo'qon shahrida tug'ilgan. 1994 yildan buyon O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Uning «Qirq kokilligim», «Iztirob ko'ylagi», «Tunlar isyoni», «Ko'zim manim...», «Qurbonjon dodxoh» tarixiy dramasi, «O'zimdanda o'zimgacha», «Poka yest na zemle razluka...», «Ot Faridi Afroz» (Moskva), «Gun aydin» (Istambul), «Ushshoq», "Tasbih", "O'sha kun bugundir" singari she'riy to'plamlari chop etilgan. She'rlari rus, turk, ingliz, nemis, frantsuz, fors, uyg'ur, ozor, gagouz, xitoy, koreys tillariga tarjima qilingan. O'z navbatida shoira jahona dabiyotidan yapon haykularini, turk she'riyatidan Mustafo Otaturk, Ziyo Ko'kalp, Husayn Otsiz, Dog'larja, Ismat O'zal she'rlarini, fors she'riyatidan Mehri Hirotiy hamda zamonaviy fors she'riyatidan Zahro Abul Husayniy, Sudoba, Soya Kabiriy g'azallarini, amonaviy qozoq va qoraqalpoq she'riyatidan va amerikalik ruhshunos Deyl Karnegi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Farida Afro'z hozir "Afro'z rekordse ovoz yozishstudiyasining bosh direktori lavozimida ishlamoqda. Oilali, uch farzandi bor.

Farida Afro'z Vatanni osmonlarda emas, balki tong sahar ko'cha supurayotgan obodonlashtirish xodimi, issiq non yopayotgan novvoy va dalada mehnat qilayotgan dehqon timsolida chizadi. Shoira "Vatan bir muhtasham bino bo'lsa, har birimiz uning g'ishtlarimiz" degan falsafiy xulosani ilgari surib, Vatan uchun mehnati singan har bir insonni qadrlab kuylaydi:

Paxtasining gullarin o'pib,
egatlarga jon terin to'kib,
ko'sagining kulganin ko'rib,
ko'zlariga yosh olgan dehqon --mening Vatanim!

Yoz chillasi doshqozonida,
qovurdoqdek qovurib,
garmselda sovurib,
shimolga shaftoli tutgan bog'bon — mening Vatanim!

1991-yil – Mustaqillik e'lon qilingan kunlardagi quvonchi, sevinchi ruhiy kechinmalari "O'zligingga jon tikaman" she'riy misralarida yorqin aks etgan. Ozodlikni kimdirilar anglamagan bir pallada shoira "o'zimmiki" deya baralla jar soladi:

O'zbekiston, o'zligingga jon tikaman,
O'rgilayin, bekligingga chin bekaman.
Istasam gar hayrat, iffat, shon ekaman,
So'zim, ko'zim, o'zim endi o'zimmiki.



Ushbu misralar mustamlakachilik kishanlaridan qutilish va o'z taqdiriga egalik qilish baxtini faxr bilan ifodalashinshidir. Shuningdek, umrining yarim yilini mustabit tuzimda o'tkazgan ijodkorning 40 yil Vatan haqida she'r yoza olmay g'am-anduhda yashagan istiroblari aks etgan ijodiy mehnatini o'qib o'sha davr ruhiyatini his qilamiz : "Yillar o'tdi .Vatanimda hurriyat quyoshi balqidi . Elim hur va ozod bo'ldi . Istiqlol bizga kuch va qudrat baxsh etdi.Men Vatanning qadrini bildim. Va angladimki , Vatan sening borliging ekan "- deya to'lib-toshib yozgan shoira bu misralarni marjon kabi ipga teradi:

Vatan,

Bayrog'ing bir bora o'polganim yo'q,

Madhingni yod bilmam, uqolganim yo'q,

Ko'nglimni, mehrimni to'kolganim yo'q,

Va lekin,

Va lekin,

Va lekin, ammo,

Jonimsan, jonimda, bir ohsan, Vatan!

Omadim o'zingsan, o'zingsan panoh,

Ne ajab, boshimda goh toj, goh kuloh,

Labda goh tabassum, goh bo'g'izda oh,

Tomirim titratgan titroqsan, Vatan!

Xulosa qilib aytganda Farida Afro'zning Vatan haqidagi qarashlari – bu shunchaki madh emas, balki o'zligini topgan millatning shukronasi va muhabbatidir. Ya'nikim Abdulla Avloniy aytkanidek: "Kishining har vaqt dilining bir go'shasinda o'z vatanining muhabbati turur".(<https://in-academy.uz>). Manzuma shuni ko'rsatadiki, shoira lirikasida vatanga bo'lgan muhabbat tushunchasi insoniy mehnat va milliy g'urur bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куронов Д. Шералиева М. Мамажонов З. Адабиётшунослик лугати. Тошкент: Akadempnashr, 2013.
2. ЎЗИМНИКИ (манзумалар) ФАРИДА АФРЎЗ«ADABIYOT UCHQUNLARI» нашриёти. Тошкент 2018.б 9
- 3.
4. Бўтаева Фарида Афрўз. Сайланма. 1 жилд. Ўша кун-бугундир.-Т: Шарк. 2003
5. Farida Afro'z. Tasbeh. T., "Sharq", 2007.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Manzuma>
7. <https://in-academy.uz>



8. www.arboblar.uz.

9. www.google.uz.

